



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19975801>

Bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishda motivatsion texnologiyalarning o'rni

Abdumanopov Muxammadsodiq Muxammadyusub o'g'li –
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: muhammadsodiq1917@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-9382-1101>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy pedagogik ta'lim tizimida kredit-modul tizimining joriy etilishi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetentligini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining nazariy tahlili asosida kognitiv kompetentlikning integrativ tabiati ochib berilgan. Motivatsion yondashuvning tarkibiy qismlari sifatida ichki va tashqi motivlar, kognitiv qiziqish va reflektiv faoliyatning ahamiyati asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** kognitiv kompetentlik, motivatsion yondashuv, bo'lajak o'qituvchi, kredit-modul tizimi, bilish faolligi, kognitiv idrok, refleksiya, integrativ sifat.*

Роль мотивационных технологий в развитии когнитивной компетентности будущих учителей

***Аннотация.** В данной статье исследуются вопросы развития когнитивной компетентности будущих учителей в условиях внедрения кредитно-модульной системы в систему высшего педагогического образования. В исследовании на основе теоретического анализа понятий "компетенция" и "компетентность" раскрыта интегративная природа когнитивной компетентности. Обоснована значимость внутренних и внешних мотивов, когнитивного интереса и рефлексивной деятельности в качестве компонентов мотивационного подхода.*

***Ключевые слова:** когнитивная компетентность, мотивационный подход, будущий учитель, кредитно-модульная система, познавательная активность, когнитивное восприятие, рефлексия, интегративное качество.*

The role of motivation technologies in developing cognitive competence in future teachers

Annotation. *This article examines the development of cognitive competence in future teachers under the conditions of implementing the credit-module system in the higher pedagogical education system. The study reveals the integrative nature of cognitive competence based on a theoretical analysis of the concepts of "competence" and "competence". The importance of internal and external motives, cognitive interest, and reflective activity as components of the motivational approach is substantiated.*

Keywords: *cognitive competence, motivational approach, future teacher, credit-module system, cognitive activity, cognitive perception, reflection, integrative quality.*

KIRISH

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish; xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish muhim vazifalar sifatida belgilab berildi[4]. O'qitishning kredit-modul tizimi kompetensiyaviy yondashuv bilan bevosita uyg'un amalga oshirilib, modulli o'qitish texnologiyalarining asosida bo'lajak mutaxassislarda tarkib toptiriladigan kompetensiyalar o'z aksini topadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Talabalarning pedagogik faoliyat motivlari xilma-xil bo'lib, ular o'ziga xos omillar bilan belgilanadi. Birinchi guruh omillariga jamoaviy xarakterning uyg'onishi bilan bog'liklari kiritilib, bunda jamoaga foyda tegishini anglash, boshqa safdoshlarga yordam berish istagi, pedagogik faoliyatida ijtimoiy ustanovkaning zarurligi va boshqalarga nisbatan tobelikni xohlamaslik kabi motivlar xisoblanadi [1].

Ikkinchi guruh omillari o'zi va oilasi uchun moddiy mablag'ning orttirilishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir.

Uchinchi guruhga o'zini o'zi faollashtirish, rivojlantirish, o'zini namoyon qilish ehtiyojlarining qondirilishi va boshqalar kiradi. Ma'lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shug'ullanmasdan turolmaydilar. Inson nafaqat iste'molchi balki yaratuvchi bo'lib, yaratish jarayonida u ijoddan ilhom oladi. Bu guruhga mansub motiv jamiyat tomonidan ehtiyojlarning qondirilishi va boshqalarning xurmatini qozonish bilan bog'liq.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim muammolari pedagogika fanida keng tadqiq etilmoqda. Respublikamizda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning nazariy asoslarini ishlab chiqishga O.Musurmonova, U.Inoyatov, N.Muslimov, B.Xodjayev, M.Vahobov, M.Mirsoliyeva, M.Pardayeva kabi olimlar katta hissa qo'shishgan [5].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kompetensiya (lot. Competo-erishyapman, munosibman, loyiqman)-1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalar; 3) shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilishi darajasi. "Competence" inglizcha so'zdan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi "qobiliyat" demakdir. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga

xizmat qiladi. Manbalarni tahlil qilish asosida “kompetensiya” tushunchasining umume'tirof etilgan yagona ta'rifi va kompetensiyalarning yaxlit tasnifi mavjud emasligi haqidagi xulosaga kelindi. Shu bilan birga xorijiy va milliy pedagogikamizda amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili muammoga doir yondashuvlarning umumiy asoslarga egaligini ko'rsatdi hamda shaxs kompetentligining motivatsion yo'nalganligiga asoslanib fikr yuritish imkonini berdi.

Kompetentlilik - 1) ma'lum holat xususida to'g'ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohadagi saviyasi; 2) pedagogning barcha imkoniyatlardan foydalana olishi, o'ziga va o'z ishiga nisbatan talabchanligi, maktab, oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'ya olishi, o'z ishining ustasi bo'lgan, sohaning sirlarini har tomonlama chuqur bilgan, o'zini o'zi rivojlantiruvchi hamda o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'la ishga sola biladigan pedagogik layoqati.

“Kompetentlik” va “kompetensiya” atamaları sinonim tarzidagi tushunchalar hisoblanadi, ular milliy pedagogikamizda yangi tushunchalardir. Shu bois mazkur tushuncha (yoki atama)larning turli xil talqinlari uchraydi. Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartida kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga quyidagicha ta'riflar berilgan:

kompetensiya - bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

kompetentlik - shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyatidir. Demak, kompetentlik bu aniq faoliyatni amalga oshirish uchun bilim va tajribalarga ega bo'lgan shaxs tavsifi bo'lib, u ta'lim oluvchi tomonidan alohida bilim va ko'nikmalarni emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrallashgan bilimlar va sifatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

A.V.Xutorskoyning tadqiqotlarida kompetensiya va kompetentlik tushunchalari quyidagicha talqin etiladi: “Kompetensiya shaxsning muayyan predmet va jarayonlarga nisbatan o'zaro chambarchas bog'liq hamda samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan xususiyatlar (bilim, ko'nikma, malaka va usullari) yig'indisi. Kompetentlik esa insonning faoliyat predmetiga nisbatan shaxsiy munosabatini o'z ichiga oluvchi muayyan kompetensiyaga ega ekanligidir”. A.V.Xutorskoy kompetentlik tushunchasiga ta'rif berganda, shaxsning nafaqat kasbiy tajribasi, balki uning bilim doirasi kengligini ham nazarda tutadi. Zero, kompetentlikka erishish muayyan bilim va layoqatga ega bo'lish, shuningdek muayyan holatdan xabardorlikdir. Kompetensiyaga ega bo'lish esa muayyan bir sohada ma'lum imkoniyatlarga ega bo'lish demakdir.

G.K.Selevkoning fikricha: “Kompetensiya” tushunchasi ko'pincha quyidagilarni ifodalash uchun qo'llanadi:

- haqiqiy metodlar, faoliyat vositalariga ega bo'lish, berilgan vazifalarni uddalash imkoniyatlari, o'quvchining tayyorgarligi, “qobiliyatligi” bilan namoyon bo'lgan ta'lim natijalari;

- atrof-muhitni o'zgartirish maqsadlarini belgilash va ularga erishishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalarni birlashtirish shakli.

N.A.Muslimov esa kompetentlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: “kompetentlik– bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatining amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi”. A.X.Mahmudov keltirgan ta'rifda esa: “kompetentlik bu doimo o'zgarib borayotgan sharoitlarda yoki mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali olib borishga imkon beruvchi shaxsga xos integrallashgan sifatlardir”.

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar nuqtayi nazaridan kompetentlik bo'lajak mutaxassisning muayyan

vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat metodlari majmuasini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni o'qitish jarayonida kutilayotgan natija umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalar orqali taqdim etilgan asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga qo'yilgan talablar ko'rinishida shakllantirilgan. Davlat ta'lim standartlarida bo'lajak pedagogning profilli (mutaxassislik) kompetensiyasi ham aniqlangan bo'lib, u o'qituvchi kasbiy kompetentligining muhim tashkil etuvchisi hisoblanadi. Yuqoridagi kasbiy kompetentlik tushunchasini anglatish uchun keltirilgan ta'riflar o'zida kognitivlikni ifodalaydi. Tadqiqotda ko'pchilik mualliflarning fikrlariga qo'shilgan holda umumiy, shaxsga bevosita bog'liq bo'lmagan va ma'lum bir faoliyat turini egallash bo'yicha shaxsiy tajriba sifatida "kompetensiya" va "kompetentlik" kategoriyalari farqlandi.

Ilmiy manbalar tahlili zamonaviy sharoitda jamiyat tomonidan ijtimoiy buyurtma sifatida qabul qilingan me'yor va standartlar bilan muvofiqlikda kompetentlikni mutaxassisning faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini aks ettiruvchi integrativ o'ziga xosligi sifatida tushunish imkonini berdi (A.V.Xutorskoy, G.K.Selevko, N.Muslimov, A.Mahmudov va boshqalar).

Bizningcha, yuqorida keltirib o'tilgan ta'rif kompetentlik tushunchasining ijtimoiy va psixologik tavsifini yaxlit aks ettiradi, shu bilan birga uning o'ziga xos xususiyatini ochib beradi, ma'lum bir belgilarini aniqlashga xizmat qiladi. Biroq mazkur ta'rifda kompetentlikning asosiy xususiyati – uning dinamik tavsifi, shuningdek, faoliyatda samaradorlikka erishishni ko'zda tutuvchi jihati alohida qayd etib o'tilmagan. Shunday qilib, tushunchaga aniqlik kiritish asosida kompetentlik deganda insonning ma'lum bir sohada samarali faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini ifoda etuvchi uning integrativ shaxsiy sifati tushuniladi, degan xulosaga kelindi. Kompetentlik kasbiy muhim sifatlardan bog'liq atamalar orqali ifoda etiladi va insonning u yoki bu kompetensiyani egallaganlik darajasi haqida guvohlik beradi.

Bo'lajak o'qituvchining kognitivligini rivojlanishga yo'naltirilgan pedagogik nazariyalar yangi bilimlarni izlab topish, o'z amaliy faoliyatida qo'llash va ularni kasbiy kompetensiyaga aylantirishga oid faoliyatni takomillashtirishni nazarada tutadi. Bo'lajak pedagoglarning kognitivligi o'quvchilarning mustaqilligi, o'quv jarayoniga qiziqishi ta'minlash ularda bilim olish motivatsiyasini shakllantirish mexnizmlarini qo'llay olishida namoyon bo'ladi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilar o'z kuchlariga ishonib o'quvchilarning o'zgaruvchan vaziyatlarda aniq faoliyat ko'rsata olishlariga ko'maklashish tajribasini egallashlari zarur. Shu bilan bir qatorda bo'lajak o'qituvchilar ota-onalar bilan ishlashning samarali metodlarini ham o'zlashtirishlari muhim.

Pedagogika ensiklopediyasida kognitivlik bilan bog'liq pedagogik tushunchalarga quyidagicha izoh berilgan:

Kognitiv – shaxsning mustaqil ijodiy fikrlash jarayonini ifodalovchi atama.

Kognitiv ta'lim – 1.atrof olam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, differensiallovchi tafakkurni shakllantirish, bilish ehtiyojlarni rivojlantirish ta'limi. 2.psixologik tadqiqot sohalaridan hamda pedagogikaning yo'nalishlaridan biri. Kognitiv ta'limning asosiy maqsadi sifatida individning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. O'quvchining yangi bilimlarni o'zlashtirishga moslashish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan ta'limiy strategiyalar majmuiga asoslangan o'qitish.

Kognitiv uslub – 1) shaxsning bilish jarayoni strategiyasida qo'llaydigan o'ziga xos bilish xususiyatlari; 2) maxsus tanlangan testlar to'plamiga ko'ra nazorat qilish usuli yoki xususiy bilish ko'rsatgichlari majmuini ifodalovchi tushuncha.

Tadqiqotchi D.Oxunova bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishga oid mualliflik ta'rifini quyidagicha ifodalashga harakat

qilgan: Bo'lajak o'qituvchining kognitiv idrok etish jarayoni kasbiy bilimlarni o'zlashtirish, ular ustida o'ylash, kreativ fikrlash, izlanishga asoslangan yechimlarni bayon etish va kasbiy kompetensiyalar sifatida o'z faoliyatida namoyon qilishdan iborat harakatlar majmuidir.

Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahorat sirlari – akme oliy pedagogik ta'lim jarayonida kasbiy bilimlarni kognitiv o'zlashtirish orqali egallaydilar. Bunday bilimlar o'z ichiga pedagogning shaxsiy-kasbiy tajribalari, kompetensiyalari va ularning kognitiv o'zlashtirish imkoniyatlarini mujassamlashtiradi.

“Kognitiv qobiliyatlar inson miyasining asosiy funksiyalari sifatida fikrlash, o'qish, o'rganish, fikr yuritish, ma'lumot saqlash hamda diqqatni jamlashni osonlashtiradi. Kognitiv nazorat esa fikrlar, his-tuyg'ular va xatti-harakatlar bir vaqtning o'zida noto'g'ri odatiy harakatlarni bostirish uchun topshiriq talabalar, sharoitlar va ijtimoiy kontekst asosida ataylab tanlanadi”. Bundan tashqari P.Douson va R.Guarelarning fikricha, kognitiv nazorat o'quvchining miyasida rivojlangan funksiyadir. Boshqalar va atrof-muhit ta'siri ostida kognitiv va lingvistik qobiliyatlar vaqt o'tishi bilan rivojlanadi.

Kognitiv rivojlanish bo'yicha Jan Piagetning nazariyasi butun dunyoga mashhur. Uning ta'kidlashicha, bolalarning aql-zakovati ular o'sishi bilan o'zgaradi. Bolalarda kognitiv rivojlanish faqat bilim olish bilan bog'liq emas. Shuningdek, atrofdagi dunyoning aqliy modelini qurishlari yoki rivojlantirishlari kerak. Demak, kognitiv qobiliyatlar doimiy ravishda rivojlanib boradi, keyingi qobiliyatlar esa avvalgilariga asoslanadi. O'rganish yangi tajribalarni oldingi bilimlar va yangi olingan bilimlarni oldingi tajribalar bilan birlashtirish natijasida yuzaga keladi.

Yuqoridagi fikrlar asosida shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, insonning kognitiv rivojlanishi uning tug'ilishidan boshlab shakllanib butun hayoti davomida davom etadi va atrof-muhitning ta'siri bilan asta-sekin rivojlanib boradi.

“Kognitiv qiziqishning o'sish darajasi bolaning ta'limdagi yutuqlariga bevosita bog'liq. Agar bola o'rganayotgan materialining ahamiyatini tushunmasa va unga qiziqmasa, bilimni o'zlashtirish jarayoni murakkablashadi, hatto samarasiz ham bo'lishi mumkin”. A.K.Markovanning fikricha, “qiziqish – bu motivasion sohadagi turli xil jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan murakkab shaxsning shakllanishi. Kognitiv qiziqish o'quv faoliyatining asosiy motivlaridan biri bo'lib, uning shakllanishi nafaqat vosita, balki o'quv jarayonining maqsadi hamdir”. Talabalarning bilish jarayoniga bo'lgan qiziqishlari – ya'ni kognisiya ko'p jihatdan ta'lim jarayoniga bog'liqdir. Aynan talabalar uchun kognitiv qiziqishning ahamiyati shundaki, u talabani ijodiy fikrlashga undaydi va bilimlarni faol o'zlashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayon talabaning mustaqil izlanishlari, fikr yuritishi va yangi bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

So'nggi davrlarda kognitiv ilmiy yo'nalish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda asosiy e'tibor inson ongida dunyo va uning aksini tasvirlash, uning tafakkurini til yordamida rivojlantirish muammosiga qaratilib, bu kabi muammolarning hal etuvchi paradigmasini paydo bo'lishini belgilash kognitivizmning asosiy vazifasiga aylangan deyish mumkin. V.Z.Demyankov ushbu ilmiy yo'nalishga quyidagicha ta'rif beradi: kognitivizm “insonni axborotni ishlash tizimi sifatida o'rganish kerak bo'lgan qarashdir va inson xatti-harakati insonning ichki holatlari nuqtayi nazaridan tavsiflanishi va tushuntirishi kerak”[13].

Kognitiv lingvistik “idrok” tushunchasi umuman kognitiv fanda ham, xususan, kognitiv lingvistikada ham markaziy o'rinni egallaydi. Bu atama bir vaqtning o'zida ikkita lotincha atama – *cognitio* va *cogitatio* so'zi bo'lib, o'zida ular “bilim”, “idrok” va “fikrlash”, “refleksiya” ma'nolarini mujassam etgan.

Kognitiv fan doirasida “bilim” tushunchasiga ta'rif berishda bir qancha yondashuvlar mavjud. Ushbu yo'nalish bo'yicha tadqiqot olib borgan ko'plab tadqiqotchilar kognitiv jarayonni ruhiy voqelik tashkil etuvchi doirasini yoki aqliy (aqliy fikrlash) jarayonlari to'plamini – dunyoni idrok etish, atrof-muhitni oddiy kuzatishni bildiradigan hodisadir deb

hisoblashadi. Olamni oddiy kuzatish, ya'ni uni toifa va zid ma'noli so'zlarlarga ajratish, fikrlash, nutq va hokazolar, insonga tashqaridan turli xil hissiy-idrok kanallari orqali keladigan yoki shaxs tomonidan allaqachon ichkilashtirilgan va qayta talqin qilingan ma'lumotlarni til vositalari yordamida qayta ishlashga xizmat qiladi. Yana bir nuqtayi nazar shundan iboratki, bilish deganda ma'lumotlarni qayta ishlashning alohida hisoblash turi tushuniladi. Bu esa uning bir turdan ikkinchisiga olib o'tish, o'zgartirish demakdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bilish statik emas, balki dinamikdir. Bilishning bu xususiyati bevosita inson omili bilan bog'liq, chunki inson yashayotgan olam doimiy o'zgarib turadi va u bilan birga dunyoni bilish ham, o'z-o'zini anglash usullari ham o'zgaradi.

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqadiki, bilish murakkab tizimli jarayon bo'lib, u nafaqat inson ruhiy faoliyatini (ong, aql, tasvirlash, ijodkorlik, tasavvur, mulohaza yuritish, xayolparastlik, orzular) o'z ichiga oladi, balki barcha harakatlanish ko'nikmalarini, idrok etish, xotira kabilarni ham o'zida jamlaydi.

Ilmiy hamjamiyat va amaliyotda jamiyatning har bir a'zosi egallashi lozim bo'lgan tayanch kompetensiya tushunchasi iste'molga kiritilgan. Tayanch kompetensiyalarning asosiy o'ziga xosligi shundaki, ular integrativ tabiatga ega hamda bilim, ko'nikma, malaka va intellektni o'zida birlashtiradi. Tayanch kompetensiyalar ta'lim oluvchilarning xilma-xil faoliyat turlari samaradorligini ta'minlashda bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga imkon beruvchi kognitiv ko'nikmalarga tayanadi. Ana shu sababli tadqiqotchilar tayanch kompetensiyalar tarkibiga albatta, bilish faoliyati sohasiga doir (I.A.Zimnyaya, M.Pardayeva va boshqalar) yoki o'quv-bilish kompetentligini (A.Xutorskoy, B.Xodjayeov va boshqalar) kiritishadi. Biz L.Semina va B.Xodjayeovlarning fikrlariga qo'shilgan holda shuni ta'kidlab o'tmoqchimizki, "mazkur sanab o'tilgan kompetensiyalar (bilish faolligi, o'quv-bilish) yaxlitlikda kognitiv kompetentlik tushunchasida aks etadi".

Kognitiv kompetentlikning tarkibiy asoslari bo'yicha kontent-tahlil shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik tadqiqotchilar o'rganilayotgan kategoriyaning tuzilmasida quyidagi komponentlarni ajratib ko'rsatishadi: motivatsion-qadriyatli, bilishga doir va jarayonli-faoliyatga doir. Biroq kognitiv kompetentlik dinamik tavsifga egaligini hisobga olib, uning samarali rivojlanishi uchun shaxs faoliyati muntazam baholab borilishi zarur. Shuning uchun kognitiv komponent tuzilmasiga reflektiv-baholovchi komponentni kiritish zarur, deb hisoblaymiz. Tahlil natijalari asosida tadqiqotda kognitiv kompetentlikning quyidagi komponentlari aniqlashtirildi:

motivatsion-qadriyatli komponent – bilish faoliyatida ehtiyojlar, bilish natijasida olingan axborotlarning ahamiyatini anglanganligi, bilish jarayoni va natijalariga qiziqishning faol namoyon bo'lishi, doimiy o'z-o'zini takomillashtirishga ehtiyojning anglanishi;

bilishga doir komponent – fikrlash operatsiyalari va bilish usullari (analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish va tasniflash, konkretlashtirish, induksiya va deduksiya, abstraktlash, modellashtirish); bilish faoliyati algoritmlari va strategiyalari;

jarayonli-faoliyatli komponent – faoliyatni amalga oshirishda bilish usullariga tayanish; bilish faoliyati algoritmlari va strategiyalarini qo'llashga shaxsning tayyorligi;

reflektiv-baholovchi komponent – faoliyatning produktiv usullarini belgilab olish maqsadida o'zining bilish faoliyatini baholashga shaxsning tayyorligi va keyingi amalga oshiriladigan harakatlarga tuzatishlar kiritish.

Yuqoridagi nazariy qoidalarga asoslangan holda bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasini quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin (1.1-rasmga qarang).



1.1-rasm. Bo'lajak pedagogning kognitiv kompetentligi tuzilmasi

XULOSA

Tahlil natijalari asosida talabalarning kognitiv kompetentligi ularning o'quv-bilish faoliyatining kognitiv mexanizmlarini (maqsad qo'yish, rejalashtirish, tahlil etish, refleksiya) amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyati hamda o'zida motivatsion-qadriyatli, bilishga doir, jarayonli-faoliyatli, refleksiv-baholovchi komponentlarni qamrab oladigan shaxsning integrativ sifatidir, degan xulosaga kelindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lev Semyonovich Vygotsky Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva: Pedagogika, 1991. – 512 s.
2. Aleksei Nikolaevich Leontyev Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Nauka, 1975. – 304 s.
3. Vasily Vasilievich Davydov Nazional'naya shkola razvivayushchego obucheniya. – Moskva: Intor, 1996. – 240 s.
4. Daniil Borisovich Elkonin Psikhologiya obucheniya mladshego shkol'nika. – Moskva: Pedagogika, 1989. – 384 s.
5. Richard M. Ryan, Edward L. Deci Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being // American Psychologist. – 2000. – Vol. 55, №1. – P. 68–78.
6. Jerome S. Bruner Toward a Theory of Instruction. – Cambridge: Harvard University Press, 1966. – 176 p.
7. Xalimova Z.Sh. Bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetentligini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar // TDPU ilmiy jurnali. – Toshkent, 2021. – №4. – B. 45–52.
8. Qodirova M.M. Pedagogik kompetentlik va uning rivojlanish omillari. – Toshkent: "Ilm Ziya", 2020. – 180 b.
9. G'ofurov M.G. Oliy ta'lim tizimida kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish muammolari // Pedagogik ta'lim. – 2019. – №3. – B. 25–30.
10. Jononov A. Motivatsion yondashuv asosida talabalarda o'quv faoliyatini faollashtirish metodikasi. – Toshkent: O'zR FA Pedagogika instituti nashriyoti, 2022. – 156 b.